

Forish tuman axborot-kutubxona markazi
Axborot-bibliografiya xizmati



**O`rta Osiyoning buyuk olimi va gumanisti, jahon tibbiyoti
asoschisi Abu Ali Ibn Sino (Avitsenna, 980–1037)
tavalludining 1045 yilligiga atab “Tabobat ilmining sultoni”
nomli bibliografik qo`llanma**

УДК 01

Ushbu bibliografik qo`llanmada jahon tibbiyoti asoschisi, jahon ilm-fani tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir, tabib va faylasuf. O'z davrining eng bilimdon olimi sifatida tanilib, Sharq va G'arb ilmiy tafakkuriga beqiyos hissa qo'shgan, nafaqat tibbiyot, balki falsafa, mantiq, matematika, fizika, kimyo, musiqa, axloq va ruhshunoslik kabi ko'plab sohalarda ham yirik asarlar yaratgan Abu Ali Ibn Sino haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayyorladi: Forish TAKM axborot-bibliografiya xizmati rahbari N. Artikova

**“Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz
avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas
sarkarda va arboblarning jasoratini
yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy
gʻurur va iftixor tuygʻularini kuchaytirishga
alohida eʼtibor qaratishimiz kerak”.**

Shavkat MIRZIYOYEV

Kirish

Abu Ali ibn Sino (980–1037) – jahon ilm-fani tarixida oʻchmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir, tabib va faylasufdir. U oʻz davrining eng bilimdon olimi sifatida tanilib, Sharq va Gʻarb ilmiy tafakkuriga beqiyos hissa qoʻshgan. Ibn Sino nafaqat tibbiyot, balki falsafa, mantiq, matematika, fizika, kimyo, musiqa, axloq va ruhshunoslik kabi koʻplab sohalarda ham yirik asarlar yaratgan.

Bugungi kunda uning nomi ilm-fanning yuksak timsoli, aql va tafakkur ramzi sifatida eʼtirof etiladi.

Ibn Sinoning hayoti va ijodi

Ibn Sino jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan buyuk siymolardan boʻlib, uning ilmiy ishlari xorazmlik buyuk ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) asarlari bilan birgalikda oʻsha davr fani taraqqiyotining eng yuqori choʻqqisini tashkil etadi.

Uning toʻla ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh al-Hasan ibn Ali ibn Sino boʻlib, koʻpincha qisqartirib Abu Ali ibn Sino yoki Ibn Sino deb yuritiladi. Bu ism qadimgi yahudiy tilida Aven Sino deb yozilgan va olimning Yevropada keng tarqalgan Avitsenna shaklidagi nomi shu soʻzning bir oz buzib talaffuz etishdan kelib chiqqan.

Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shahridan boʻlib, Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (976-997) davrida Buxoro tomoniga koʻchib keladi va oʻsha atrofdagi Hurmitan qishlogʻiga amaldor etib tayinlanadi. Keyin u Afshana nomli qishloqda ham istiqomat qiladi va shu qishloqdan Sitara nomli qizga uylanadi. Ularning ikki ugillari bulib, shulardan kattasi Husayn edi (Ibn Sinoning bolalikdagi asl ismi shunday boʻlgan). U 370 hijriy yili safar oyining boshida (ya'ni 980 yil avgust oyining ikkinchi yarmida) dunyoga keladi.

Husayn 5 yoshga kirgach, Ibn Sinolar oilasi poytaxt - Buxoroga ko'chib keladi va uni o'qishga beradilar. Ibn Sino avval Qur'on va adab darslarini o'qiydi va 10 yoshga yetar-yetmas bu darslarni to'la o'zlashtirib oladi. Ayni vaqtda u arifmetika va algebra bilan ham shug'ullanadi. Bulardan tashqari, uyida Abu Abdulloh an-Notiliy rahbarligida mantiq geometriya va astronomiya fanlarini o'qiydi. Shu bilan birga Ibn Sino tabiiy fanlar bilan ham jiddiy shug'ullanadi, xususan tabobatni sevib o'rganadi. U o'zining tug'ma iste'dodi va favqulodda mehnatsevarligi tufayli darslarini osonlik bilan o'zlashtirar va hatto muallimlariga noma'lum narsalarni ham kitobdan mustaqil o'qib bilib olardi. Ayniqsa, tib ilmida u juda tez kamol topa boshlaydi. «Tib ilmi, - deb yozadi Ibn Sino o'z tarjimai holida- qiyin ilmlardan emas, shu sababli qisqa muddat ichida bu [fanda juda] ilg'orlab ketdim, endi hatto bilimdon tabiblar ham kelib huzurimda tib ilmidan dars oladigan bo'ldilar. Bemorlarni ham ko'rib turardim va [shu yo'sinda] orttirgan tajribalarim natijasida muolaja eshiklari menga shu qadar [keng] ochilib ketdiki, uni ta'riflab berish qiyin». Ibn Sino 17 yoshidayoq Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida dong chiqaradi. O'sha kezlarda Somoniylar davlatining boshlig'i Nuh ibn Mansur kasal bo'lib, saroy tabiblari uni davolashdan o'jiz edilar. Buxoroda yangi chiqqan yosh tabibning ovozi saroyga ham yetib borgan edi, uni amirni davolashga taklif qiladilar va uning ishtirokida davolangan bemor tez fursatda oyoqqa turadi. Buning evaziga Ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu kutubxona o'sha vaqtda butun O'rta va Ya'qin Sharqdagi eng katta va boy kutubxonalardan sanalardi. Bir necha yil davomida kecha-kunduz tinmay mutolaa qilish natijasida Ibn Sino o'z bilim doirasini mislsiz darajada kengaytirdikim, u davrda shu qadar bilimga ega bo'lgan boshqa bir kishini topish mushkil edi.

Mantiq tabiiyot, tabobat va boshqa fanlarni chuqur o'zlashtirgach, Ibn Sino o'sha davr falsafasining asosiy qismlaridan biri hisoblangan metafizikani o'rganishga kirishadi. Biroq yosh olim bu fanning daqiq tomonlarini o'zlashtirishga Abu Nasr Forobiy (873-950) tomonidan yozilgan bir falsafiy asarni mutolaa qilgandan keyingina muvaffaq bo'ladi. Ibn Sinoning o'z davridagi yirik olimlar, jumladan, Abu Rayhon Beruniy bilan bo'lgan ilmiy munozaralari taxminan shu yillardan boshlanadi. U o'zining birinchi yirik ilmiy asarlarini ham Buxoroda 1000-1001 yillarda yozadi. Masalan, o'z qo'shnisi va do'sti Abu-l-Husayn al-Aruziyning iltimosiga binoan riyoziyotdan boshqa barcha fanlarni o'z ichiga olgan «Al-hikmat al-aruziya» nomli asarini, boshqa bir do'sti fiqx va tafsir ilmlarining bilimdoni Abu Bakr al-Barqiy al-Xorazmiyga atab entsiklopedik xarakterga ega bo'lgan 20 jildlik «Al-hosil va-l- mahsul» deb atalgan asarini yozadi.

999 yili Qoraxoniylar Buxoroni zabt etib, Somoniylar davlatini yiqitadilar. Bundan tashqari, ayrim mahalliy hukmdorlar orasidagi o'zaro urushlar hamon tinmay davom etar va bu voqealar Buxoroda tinch va xotirjamlikda ilmiy ishlarni davom ettirishga qulay sharoit qoldirmagan edi. Buning ustiga 1002 yili Ibn

Sinoning otasi vafot etadi. Oqibatda Ibn Sino o'z yurti Buxoroni tark etib Xorazm (Urganch)ga ketadi.

Xorazm ham Markaziy Osiyoning qadimiy boy va madaniy viloyatlaridan biri bo'lib, XI asrning boshlarida u yerda ilmiy hayot ancha rivojlangan edi. Xorazmshohlar Ali ibn Ma'mun (997-1009) va Ma'mun ibn Ma'mun (1009—1017)lar davrida Urganchda ko'pgina zamonasining taniqli olimlari yashar va ijod etar edilar. Yirik matematik va astronom Abu Nasr ibn Iroq (Beruniyning ustoz, 1034 y. vafot etgan), atoqli tabib va faylasuflar Abu Sahl Masihiy (1010 y. vafot etgan) va Abu-l-Xayr Xammor (942-1030), nihoyat buyuk Abu Rayhon Beruniy (973-1048) shular jumlasidandir.

G'azna hukmroni Sulton Mahmud (998- 1030) Xorazm yerlarini o'z davlatiga qo'shib olishga harakat qiladi. Unga tobe bo'lishni istamagan Ibn Sino taxminan 1010-1011 yillarda Xorazmdan maxfiy ravishda chiqib Xuroson tomon yo'l oladi. Niso, Abivard (bu shaharlar hozirgi Turkmaniston yerida bo'lgan) va boshqa shaharlarda qisqa vaqt turgandan keyin Kaspiy dengizining sharqi-janubida joylashgan Gurgon amirligiga yetib keladi. Bu yerda u Abu Ubayd Juzjoniylar bilan tanishadi, shundan boshlab u yigit Ibn Sinoga eng yaqin va sodiq shogird bo'lib qoladi va ustozining oxirgi nafasigacha undan ajralmaydi. Juzjoniylar Ibn Sinoning to Gurgonga kelgunigacha bo'lgan tarjimai holini uning o'z og'zidan yozib olgan, ustoz hayotidagi undan keyingi voqealarni ham o'zi yozib to'latgan, shu tufayli biz Ibn Sinoning hayoti va ijodi haqida juda ishonchli manbaga egamiz. Ko'p o'tmay Ibn Sino Gurgonda o'zining ilmiy ishlari va tabiblik faoliyatini boshlab yuboradi. Tabobatga oid mashhur asari «Kitob al-qonun fi-t-tibb» («Tib qonunlari») ning 1-kitobini va ba'zi bir boshqa asarlarini yozishga kirishadi.

1014 yili Ibn Sino Gurgonni ham tark etadi va bir qancha muddat Ray va Qazvin shaharlarida turgandan keyin Hamadonga keladi va Buvayxiylar hukmdori Shams ad-davla (997-1021) xizmatiga kiradi - oldin saroy tabibi bo'lib ishlaydi, so'ngra vazirlik mansabiga ko'tariladi. Davlat ishlari bilan band bo'lishiga qaramay, ilmiy ishlarni davom ettiradi va qator asarlar yaratadi, o'zining mashhur falsafiy entsiklopediyasi «Kitob ash-shifo» ni ham shu yerda yozishga kirishadi.

1023 yili Isfahonga ko'chadi va «Kitob ash-shifo»ning qolgan qismlarini yozishda davom etadi. Boshqa bir qancha asarlar bilan bir qatorda fors tilidagi falsafiy kitobi «Donishnoma»ni tasnif etadi.

Yuqorida nomi zikr etilgan Juzjoniylarning yozishicha, Ibn Sino jismoniy jihatdan ham juda baquvvat kishi bo'lgan. Biroq shaharma-shahar darbadarlikda yurish, kechalari uxlamasdan uzluksiz ishlash va bir necha bor ta'qib ostiga olinib, hatto hibsda yotishlar olimning salomatligiga ta'sir etmay qolmadi. U kulanj (kolit) kasalligiga chalinib qolgan edi. Kasallik zo'raygach, uni tutqanok ham tutadigan bo'ladi, oqibatda shu darddan u 428 hijriy yilining ramazon oyida (1037 yilning

iyunida) 57 yoshida Hamadonda vafot etdi. Uning qabri hozirgacha saqlanib qolgan. Ibn Sino haqiqiy entsiklopedist olim sifatida o'z davridagi fanlarning deyarli hammasi bilan muvaffaqiyatli ravishda shug'ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd etilgan bo'lsa ham, zamonlar o'tishi bilan ularning ko'pi yuqolib ketgan va bizgacha faqat 242 tasi yetib kelgan. Shu 242 dan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi psixologiyaga, 23 tasi tabiiyot ilmiga, 7 tasi astronomiyaga, 1 tasi matematikaga, 1 tasi muziqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi etikaga, 4 tasi adabiyotga va 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan ilmiy yozishmalarga bag'ishlangan.

Bu asarlarning barchasi ham olimlar tomonidan bir xilda o'rganilgan va keng ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lgan, deb ayta olmaymiz. Ularning ayrimlari jahonning ko'p tillariga tarjima etilib, asrlar davomida qayta-qayta nashr etilib kelayotgan bo'lsa, ko'plari hali turli kutubxonalarda qo'lyozma holida o'z tadqiqotchilarini kutib yotibdi.

Olimning bizgacha yetib kelgan umumiy falsafaga oid muhim asarlari quyidagilar:

I. «Kitob ash-shifo» Ibn Sinoning eng yirik falsafiy asari hisoblanadi, uni o'z davrining ilmiy qomusi desa bo'ladi. Bu asar 4 qismdan iborat: 1) mantiq 2) tabiiy fanlar (bu qismida minerallar, o'simliklar, hayvonot olami va insonlar haqida alohida-alohida bo'limlarda gap yuritiladi; 3) matematika, ya'ni riyoziyot ilmlari (bunda arifmetika, handasa, astronomiya va muzika fanlari haqida bahs boradi); 4) metafizika yoki ilohiyot. Bu asarning tabiiy fanlar va metafizikaga tegishli qismlari 1887-88 yili Tehronda toshbosma nashr etilgan, mantiq qismi esa 1952 yildan boshlab Qohirada bir necha jildda bosilgan. U biron tilga ham to'la ravishda tarjima etilmagan, faqat ayrim bo'limlarigina lotin, suryoniy, ibroniy, nemis, ingliz, frantsuz, rus, fors va o'zbek tillarida nashr etilgan.

II. «Kitob an-najot» («Najot kitobi»). Bu kitobda «Kitob ashshifo»ning mazmuni qisqartib bayon etilgan. Uning arabcha matni 1593 y. Rimda, 1913 va 1933 yillari Qohirada bosilgan. Ayrim qismlari suryoniy, ibroniy, lotin, nemis, frantsuz va rus tillariga tarjima etilgan.

«Al-ishorat va-t-tanbihot» («Ishoralar va tanbihlar»). Bu Ibn Sinoning eng so'nggi yirik asari bo'lib, unda olim falsafaning asosiy masalalarini qisqa iboralarda bayon etgan. Bu asarning arabcha matni Leydenda (1892 y), Qohirada (1947), Tehronda (1864), Istanbulda (1873) nashr etilgan. U frantsuz (1951) va fors tillarida ham bosilgan (1937, 1954).

«Donishnoma» («Bilim kitobi»), Bu Ibn Sinoning fors-dariy tilida yozilgan falsafiy asarlaridan eng muhimi hisoblanadi. Uning forsha matni Haydarobodda

(1891) va Tehronda (1897, 1952) nashr etilgan, 1957 yili Dushanbeda ruscha tarjimasi bosilib chiqqan.

Ibn Sino bu asarlarida o`zidan oldingi va o`z davridagi tabiiy fanlar va falsafaning yutuqlaridan foydalangan holda shunday bir falsafa yaratdiki, bu falsafani o`rta asr Sharqidagi nazariy bilimlarning eng yuqori cho`qqilaridan biri deb ta'riflash mumkin.

Ibn Sinoning tabiiyot fani sohasidagi xizmatlari to`g`risida gapirganda, avvalo uning ximiya fani taraqqiyotiga qo`shgan hissasi ustida to`xtash lozim. U bu fanga ko`p yangiliklar kiritdi, ayniqsa, o`sha davrdagi kimyogarlarning oddiy metallarni (masalan, mis yoki temirni) asl metallarga (oltin yoki kumushga) aylantirish mumkin degan nazariyalarini qattiq tanqid ostiga oldikim, bu narsa al-kimyoning ilmiy kimyoga o`sib o`tishiga katta yordam ko`rsatdi».

Ibn Sinoning tog`larning paydo bo`lishi to`g`risidagi juda ajoyib fikrlari hozirgi ilmiy nazariyaga juda yaqin keladi. Uningcha, tog`lar ikki sababga binoan vujudga keladi: 1) kuchli yer qimirlashi vaqtida yer qobig`ining ko`tarilishi; 2) suv oqimi va havoning asta-sekin ta'siri natijasida chuqur jarliklar paydo bo`lib, natijada ularning yonida balandlik hosil bo`lib qolishi.

Ibn Sinoning mineralogiya va geologiya fanlariga qo`shgan hissasi yanada salmoqli edi. Jumladan, u minerallarni to`rt guruhga bo`lib, ularning original klassifikatsiyasini taklif etdi. Bu klasifikasiya to XIX asrgacha deyarli o`zgarishsiz saqlanib keldi. Olimning mineralogiya sohasidagi ishlarining muhimligini ta'kidlab, 1956 yilda O`zbekiston erida topilgan yangi mineral Avisennit, deb ataldi.

Ibn Sino botanika masalalari bilan ham juda ko`p shug`ullandi, chunki tabobatda ishlatiladigan dorivor moddalarning aksariyati o`simliklardan olinadi. Mashhur shved botanigi Karl Linney (1707-1778) Ibn Sinoning botanika sohasidagi xizmatlarini taqdirlab, tropic mamlakatlarida dengiz suvida ham o`suvchi va doimo yashil holda qoladigan bir daraxtni Avisennia deb atadi.

She'riyat sohasida ham Ibn Sino sezilarli iz qoldirdi. U o`zining ayrim ilmiy asarlarini rajaz vaznli she'rda yozgan. Bundan tashqari, uning bir nechta falsafiy qissalari ham borki, ular keyinchalik fors-tojik adabiyotiga chuqur ta'sir ko`rsatdi. Ibn Sinoni «At tayr» («Qushlar») nomli she'riy risolasi bilan Faridud-din Attor (1142-1220)ning «Mantiq at-tayr» («Qushlar so`zi») dostoni orasida ma`lum darajada bog`liklik bor. Bu mavzu keyinchalik Alisher Navoniy (1441-1501)ning «Lison at-tayr» («Qushlar tili») dostoni orqali o`zbek adabiyotiga ham kirib keladi. Abdurahmon Jomiy (1414—1492)ning «Salomon va Absol»[yoki Ibsol] nomli dostoni Ibn Sinoning shu nomli qissasi asosida yozilgan.

Olimning fors tilida yozilgan bir nechta g`azal va qit`alari va 40 dan oshiq ruboiylari ham mavjud. Ma'lumki, tabobat, ya'ni meditsina fani eng qadimiy

fanlardan hisoblanadi. Misr, Hindiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarida yashovchi xalqlar asrimizdan ikki ming yil oldinoq ko'plab kasalliklarni bilganliklari va ularni davolay olganliklari haqida tarixiy ma'lumotlarga egamiz. Keyinchalik bu fan qadimgi Yunoniston, so'ngra Rim imperiyasiga qarashli yerlarda rivoj topadi.

Tarixdan ma'lumki, VII asrda arab xalifaligi vujudga keladi va qisqa bir vaqt ichida Eron, Misr, SHimoliy Afrika erlari bosib olinadi, arab istilochilari O'rta Osiyo, Hindiston va Ispaniyagacha borib etadilar. Shi erlarning barchasida arab tili asta-sekin umumiy ilmiy tilga aylana boradi.

VIII-IX asrlarda arab tilidagi ilmiy adabiyot asosan boshqa tillardan tarjima qilingan asarlardan iborat edi. Abbosiy xalifalaridan Horun ar-Rashid(786-809)va uning o'g'li Ma'mun(813-833)davrlarida Bog'dodda maxsus tarjimonlar hay'ati tuzilgan bo'lib, ular yunon, Sanskrit va kitoblarni suryoniy va arab tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanar edilar. Bu sohada mashhur tarjimon va olim Hunayn ibn Ishoqning (808-873)xizmatlari, ayniqsa salmoqlidir.

Ibn Sino yashagan davr, ya'ni X asrning oxiri va XI asrning boshlariga kelib boshqa tillardan tarjima qilingan asarlar bilan bir qatorda arab va qisman fors tillarida yozilgan original ilmiy asarlar ham butun bir kutubxonani to'ldirarli miqdorda mavjud edi. Shu original asarlarning mualliflari aksar holda O'rta Osiyo, Eron va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlaridan etishib chiqqan bo'lib, ularning ichida Ibn Sino singari butun jahonga mashhur bo'lganlari ham oz emas edi.

Biz bu erda ularning hammasini eslatib o'tolmaymiz, albatta. Ammo Ibn Sino o'qigan yoki foydalanishi mumkin bo'lgan tibbiy asarlar haqida ham tasavvur hosil qilish uchun uning o'zi «Tib qonunlari»da zikr etib o'tgan olimlardan ba'zilarining nomlarini tilga olmoqchimiz.

Qadimgi yunon va rim tabiblaridan quyidagilar zikr etiladi: Buqrot, ya'ni Gippokrat (asrimizdan oldingi 460-355), Dioskorid (I asrda yashagan), Jolinus ya'ni Galen (129-200), Oribaziy (325-402), Pavel (615—690). Bularning arab tiliga tarjima qilingan asarlari bizgacha ham yetib kelgan.

Hindiston tabiblaridan, Kushon podshosi Kanishka davrida, ya'ni I asrda yashagan Chapaka bir necha bor qayd qilinadi. Beruniyning guvohlik berishicha, hindlar Chapakaning kitobini barcha tibbiy asarlardan afzal ko'rganlar va bu kitob Abbosiylar davrida arab tiliga tarjima qilingan

O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlar ichidan yetishib chiqqan tib olimlaridan «Qonun»da quyidagilarning nomini uchratamiz;

Abu Jurayj-taxminan VIII asrda yashagan nasroniy tabiblaridan.

Mosarjavayh-Umaviylar davrida Basrada yashagan tabib va tarjimon. Keyingi mualliflar, jumladan, Ibn Sino ham uni ko`pincha al-Yahudiy deb ataydilar.

Masih ad-Dimashqiy -Horun ar-Rashidning (786-809) shaxsiy tabiblaridan, «Kunnosh al-kabir» nomli katta asar muallifi.

Ibn Mosavayh (777-857)-Eronning qadimgi ilmiy markazlaridan hisoblangan Jundishoputda tugilgan, Bag`dodda yashagan va u erda «Bayt al-hikma»da tibbiy asarlarni yunon tilidan suryoniy va arab tillariga tarjima qilish ishlarini boshlab bergan olimlardan. U birinchilardan bo`lib ko`z kasalliklari haqida ilmiy asar yozgan.

Sobur ibn Sahl(869 vafot etgan)-oldin Jundishopurda, keyin esa Bag`dodda kasalxonani boshqargan. Sharqda birinchi bo`lib katta farmakopeyani («Kitob al-aqrabodin al-kabir») yaratgan.

Sahorbuxt – Bag`dodda yashagan, Hunayn ibn Ishoqning shogirdlaridan. Sodda dorilar haqida kitobi bor.

Ibn Sinodan oldin o`tgan tib olimlari ichida Abu Bakr Roziyning (865-925) nomini alohida qayd qilish lozim. Chunki u o`rta asrning eng buyuk tabiblaridan biri va ulug` kimyogari hisoblanadi. Buyuk Abu Rayhon Beruniy Roziyga katta ehtirom bilan qaragan va o`zining dorishunoslikka bag`ishlangan «Saydana» nomli asarini yozishda Roziyning asarlariga keng tayangan. Roziyning tabobatga oid eng yirik asari «Kitob al-hoviy» («Qamrab oluvchi kitob») deb ataladi. Bu kitob Roziygacha tib ilmi sohasida ma'lum bo`lgan barcha ma'lumotlarni o`z ichiga oladi va hajm jihatdan «Qonun»dan ham kattalik qiladi. Biroq kitobning qat`iy bir plan bo`yicha bob va fasllarga ajratilmagani undan foydalanishni ancha qiyinlashtiradi. Shuning uchun ham uning arabcha nusxalari ko`p tarqalmagan va keyingi vaqtlargacha hatto nashr ham etilmagan edi. Faqat o`rta asrda Yevropada chop etilgan lotincha tarjimasigina ma'lum edi.

Ibn Sinoning salaflari haqida gapirar ekanmiz, Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan tabiblarni, shuningdek, uning bevosita ustozlarini eslamay o`tolmaymiz (Ibn Sino ularning nomini «Qonun»da zikr etmasa ham). Ulardan biri Ali ibn Rabban at-Tabariy bo`lib, Marv shahrida 192/808 y. Tug`ilgan va Bag`dodda yashab tabobatga oid «Firdavs al-hikma» («Hikmat bog`i») nomli asar yozgan. Ikkinchisi Abu Bakr Roziyning buxorolik shogirdi Rabi ibn Ahmad al-Axavayniy al-Buxoriy, uning fors-dariy tilida yozilgan «Hidoyat al-muta'llimin fi-t-tibb» («Tabobatni o`rganuvchilar uchun qo`llanma») nomli kitobi 1965 y. da Eronda nashr etilgan.

Ibn Sinoning tarjimai holi bayon etiladigan eski manbalarda uning tabobat sohasidagi ustози sifatida buxorolik tabib Abu Mansur al-Hasan ibn Nuh al-Qumriyning nomi tilga olinadi. Qumriy o`z davrining mashhur tabiblaridan bo`lib, Somoniy amirlari orasida ham katta e'tibor qozongan. Ibn Sino o`spirinlik vaqtlarida

ancha keksayib qolgan Qumriy bilan yaqindan tanish boʻlgan va uning tabobat sohasidagi darslaridan bahramand boʻlgan. Qumriy 390/999 yilda Buxoroda vafot etgan. Uning ikkita asari bizgacha yetib kelgan-«Kitob al-gʻino va-l-muno» («Mukammal va maqsadlarga [etishtiruvchi] kitob»), «Kitob at-tanvir fi-l-istiqlomat-tibbiya» («Tibbiy istilohlarni yorituvchi kitob»), Bulardan birinchisi inson a'zolarida boʻladigan barcha kasalliklarni davolashga bagʻishlangan boʻlsa, ikkinchisini oʻsha davr tabobatida iste'molda boʻlgan tibbiy terminlarning izohli lugʻati deyish mumkin.

Ibn Sino bilan yaqindan muloqotda boʻlgan tabiblardan yana (biri Xorazmda yashab ijod etgan Abu Sahl al-Masihiydir. Masihiy falsafa, astronomiya va matematikaga oid asarlar ta'lif etgan boʻlsa ham, u asosan tabib sifatida mashhur. U Ibn Sino bilan Xorazmdan Xurosonga ketishda yoʻlda (401/1010 yili) halok boʻladi. Uning tabobatga oid eng yirik asari «Kutub al-mi'a fi-s-sinoat at-tibbiya» («Tib san'ati boʻyicha yuz kitob») deb ataladi va unda bu fanning barcha sohalari mufassal bayon etiladi.

Ibn Sinoning tarjimai holidan ma'lumki, uning bolalik chogʻlarida Abu Abdulloh an-Notiliy degan kishi mantiq, geometriya, va falsafadan dars bergan. Biroq Notiliyning fan tarixidagi yosh Ibn Sinoni tarbiyalash bilan cheklanmaydi. U I asrda yashagan yunon tabibi va dorishunosi Dioskoridning «Dorilik moddalar» nomli mashhur kitobining arabcha tarjimasini qaytadan tahrir qilib chiqqan va oldingi tarjimonlar tomonidan aniqlanmay qolgan dorilik oʻsimliklar va boshqa moddalarning mahalliy nomlarini topib, tarjimadan foydalanishni ancha osonlashtirgan. Ibn Sino «Qonun»ning sodda dorilarga bagʻishlangan Ikkinchi kitobini yozishda Dioskorid asari tarjimasining mana shu Notiliy qilgan tahriridan foydalangan.

Demak, yuqorida aytilganlardan ma'lum boʻladiki, Ibn Sino davrigacha Qadimgi yunon va hind tabobatining asosiy asarlari arab tiliga tarjima qilingan edi. Bundan tashqari, Oʻrta va Yaqin Sharq mamlakatlarida ham tabobat fani ancha taraqqiy qilgan boʻlib, qator mahalliy olimlar etishib chiqqan hamda arab va fors tillarida tibga oid ilmiy asarlar yaratilga ediki, ularning aksari, shubxasiz, Ibn Sinoga ma'lum boʻlgan.

Endi Ibn Sino oldida turgan vazifa mana shu turli xalq namoyandalari tomonidan asrlar davomida tib ilmi sohasida toʻplangan ma'lumotlarning muhimlarini ikkinchi darajadagilaridan ajratib, muayyan bir tartibga solish va ularni oʻz tajribalari bilan boyitgan holda ma'lum nazariya va qonun-qoida asosida umumlashtirishdan iborat edi.

Bu nihoyatda murakkab va mas'uliyatli vazifani Ibn Sino katta mahorat bilan amalga oshirdiki, bunga uning «Qonun»i va bu asarning jahon tib ilmi tarixida tutgan mavqeyi va qozongan shuhrati yorqin guvohlik berib turibdi.

“Qonun” haqida gapirishdan oldin Ibn Sinoning boshqa tibbiy asarlaridan ayrimlarini ham eslatib o`tish lozim . Olimning bizgacha yetib kelgan tibbiy asarlari ichida quyidagilarni ko`rsatish mumkin.

I. «Urjuza fi-t-tibb». Ibn Sino tabobat ilmining nazariyasi va umumiy masalalarini o`rganuvchilarga mo`ljallab darslik sifatida tuzgan bu asarini rajaz vaznida she'r bilan yozgan. «Urjuza»ning arabcha asl matni Kal`kutta (1829), Laknav (1845) va Parijda (1956) nashr etilgan. Lotin tiliga qilingan tarjimasi ham ko`p bor chop etilgan, uning yana fransuzcha, nemischa, inglizcha tarjimalari mavjud. 1972 yili Toshkentda o`zbekchaga qilingan tarjimasi ham bosilib chiqdi.

II. «Al-adviyat al-qalbiya» («Yurak dorilari»). Yurak kasalliklarini davolash o`sha vaqtda ham tabobat ilmining eng muhim masalalaridan biri bo`lganligi uchun Ibn Sino bu haqda maxsus risola yozgan. Uning arabcha matni Istanbulda 1937 y. bosilgan. Lotincha tarjimasi 1482 y., turkchasi 1937 y. va o`zbekchasi 1966 y. Toshkentda nashr etilgan .

III. «Daf' al-mador al-kulliya an-al-abdon al-insoniya...» («Inson badaniga yetishgan barcha zararlarni yo`qotish...»). Hifz as-sihha, ya'ni sog`liqni saqlash (hozirgi ibora bilan aytganda, gigiena) va parhez masalalariga bag`ishlangan bu asar 1547 yildayoq lotin tilida nashr etilgan, arabchasi 1837 y. Qohirada bosilgan edi. O`zbek tiliga qilingan tarjimasi 1978 yili Toshkentda bosilib chiqdi.

IV. «Kitob al-kulanj», yug`on ichakda bo`ladigan kolit kasalligiga bag`ishlangan bu risola hali nashr etilmagan, uning qo`lyozma nusxalari turli kutubxonalarda saqlanib kelmoqda.

V. «Maqola fi-n-nabz» («Tomir urishi haqida maqola»), fors tilida yozilgan va Tehronda 1937 va 1952 yillari bosilgan. 1987 yilda o`zbek tiliga tarjimasi nashr qilingan.

VI. «Urjuza fi-t-tibb [fil-l-fusul al-arba'a]» («Yilning to`rt fasliga oid tibbiy urjuza»), Bu she'riy risolada yilning har bir faslida nima qilish kerak, qanday ovqat, ichimlik va dorilarni iste'mol qilish kerakligi haqida gap boradi. U ham bosilmagan, qo`yozmalari turli kutubxonalarda saqlanadi.

VII. “Urjuza fi-l-mujarrabot» («Tajribadan o`tgan [davolar] haqida urjuza “),bosilmagan.

VIII. “Risola fi-l-boh» («Shahvoniy quvvat haqida risola»). Yosh o`tishi quvvatning kamayishi va uni qo`zg`atuvchi dorilar haqida gapiriladi. O`zbekcha tarjimasi chop etilgan.

IX. “Risola fi tadbir al-musofirin» («Safarda yuruvchilarning tadbiri haqida risola»). Dengizda safar qilganda, qordan ko`z qamashganda, sovuqdan oyoq-

qo'llar og'riganda va hokazo hollarda ko'rilishi lozim bo'lgan choralar ko'rsatiladi. Turk va O'zbek tillarida nashr etilgan.

X. "Risola fi xifz as-sihha" («Sog'liqni saqlash haqida risola»). 13 bobdan iborat bu risolada umuman shaxsiy gigiena qoidalari haqida gap boradi. Ruscha tarjimasi 1980 yilda bosilgan.

XI. "Risola fi-s-sikanjubin" («Sikanjubin haqida risola»). Asal (yoki shaker) va sirkadan tayyorlanadigan bu ichimlikning foydalari haqida yoziladi. O'rta asrlarda lotin tilida bosilgan edi. O'zbek tiliga qilingan.

XII. "Risola fi-l-fasd" («Qon olish haqida risola»). Turkcha tarjimada bosilgan.

XIII. "Risola fi-l-hindibo" («Sachratqi haqida risola»). Arabcha matni turkcha tarjimasi bilan birga 1955 yilda Istambulda bosilgan. 1987 yilda o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Ibn Sinoning tibga oid eng yirik va asosiy asari, hatto umuman uning ijodidagi shoh asari «Tib qonunlari»dir.

"Qonun" haqida gap borar ekan, avvalo bu asar qachon yozilgan, degan savol tug'iladi. Ibn Sinoning o'zi bu haqda hech narsa demaydi. Ammo 25 yil undan ajralmay birga bo'lgan eng yaqin shogirdi va do'sti Abu Ubayd Juzjoniyning guvohlik berishicha, Ibn Sino «Qonun» ning 1-kitobini Gurgonga kelgandan keyin, ya'ni 1012 yildan boshlab yozishga kirishadi. Albatta "Qonun" kabi katta hajmli entsiklopedik xarakterdagi ilmiy asarni yozish oldindan tayyorgarlik ko'rib kelingan bo'lishi kerak, shuning uchun ham hali Buxoro kutubxonasida mutolaa qilib yurgan yillari va keyinchalik Xorazmda istiqomat qilgan chog'laridanoq material yig'ib yurgani shubhasizdir. «Qonun»ning qolgan kitoblarini Ray va Hamadonda ekanida (1015- 1024 yillar mobaynida) yozganligi haqida ma'lumotlar bor.

XI asrning 1-choragida yuzaga kelgan «Qonun»ning turli kotiblar tomonidan ko'chirilgan ko'p sonli qo'lyozma nusxalari tezlik bilan tarqala boshlaydi va ko'p o'tmay mavjud barcha tibbiy asarlarni, hatto Abu Bakr Roziy va Ali ibn Abbos Majusiy kabi mashhur olimlarning kitoblarini ham siqib chiqara boshlaydi. Chunki bu asar o'z davridagi tabobat fanining mufassal qomusidan iborat bo'lib, unda inson sog'ligi va kasalliklariga oid bo'lgan barcha masalalar mantiqiy tartibda to'la bayon etilgan edi. Oldinlari tabobat asosan hunar hisoblanar va u bilan shug'ullanuvchilar nazariy masalalarga unchalik ahamiyat bermasdan uni amalda qo'llash bilangina cheklanar edilar. Ibn Sino esa medisinani ilm darajasigacha ko'tardi va uning ham amaliy, ham nazariy masalalarini chuqur ishlab chiqdi. «Qonun»ning 1-kitobini tabobatning umumiy nazariy masalalariga, ya'ni kulliyotiga bagishlangani bejiz emas edi. XII asrda yashagan adabiyotshunos olim Nizomiy Aruziy Samarqandiy o'zining «Chahor maqola» nomli asarining tabobatga bag'ishlangan 4-maqolasida

bu fanni egallash uchun mutolaa qilinishi lozim bo'lgan kitoblarning ro'yxatini keltirib, oxirida shunday deydi:

«Agar kimki bularning barchasiga bo'lgan ehtiyojdan qutilmoqchi bo'lsa, «Qonun» bilan kifoyalansin. Men aytganlarimning hammasi yana ko'p boshqa qo'shimchalar bilan birga «Qonun»da topiladi. Kimki «Qonun»ning birinchi jildini o'rganib chiqsa, uning uchun tabobat ilmining asoslari va umumiy masalalaridan biron narsa yashirin qolmaydi, chunki agar Buqrot (Gippokrat) va Jolinus (Galen) tirilib qolsalar, bu kitob oldida sajda qilishlari lozim bo'lardi» .

Darhaqiqat, «Qonun» Shark mamlakatlarida shu qadar yuksak ahamiyatga molik bo'lib ketdiki, endi tabobat ilmini usiz tasavvur qilib bo'lmasdi . O'nlab yirik olim va tabiblar bu kitobga sharhlar yozdilar, ba'zilar esa uni qisqartirib «Qonuncha» nomida kichik qo'llanmalar tuzdilar.

«Qonun»ga sharh bog'lagan ba'zi olimlarning nomlarini eslatib o'tamiz: Faxriddin Roziy (XII asr), Muhammad Naxchivoniy, Ibn an-Nafis (XIII asr), Qutbiddin Sheroziy (XIV asr), Abdullo Oqsaroiy (XIV asr), Sadiddiddin Kozaruniy (XIV asr), Abdurahmon Misriy (XIV asr), Hakim Ali Jiloniy (XVI asr), Ishoqxon ibn Ismoilxon (XVIII asr), Hakim Shifoixon ibn hakim Abdulshofi'xon (XIX asr).

«Qonun»ni qisqartirib kichik qo'llanma tuzganlar ichida Ibn Sinoning shogirdlaridan Muhammad Iloqiy (vafoti 1068 y.) hamda XIV asrda yashagan xorazmlik olim Mahmud Chag'iniyni eslatish bilan kifoyalanamiz (Chag'iniyning qisqartmasi «Qonuncha» nomi bilan mashhur).

“Qonun” ning asl arabcha matnining nashriga kelsak, u birinchi marta 1593 yili Rimda bosilgan edi. Keyinchalik u Qohira (1873,77, 79), Tehron (1889) Laknav (1906) va Lohur (1905) shaharlarida ham chop etildi.

Sharqda shu qadar e'tibor qozongan «Qonun» ko'p o'tmay, Farb mamlakatlarida ham shuhrat topdi.

Ma'lumki, o'rta asrlarda to Uyg'onish davrigacha Yevropa mamlakatlarida ilm-fan Sharq mamlakatlaridagiga nisbatan ancha orqada edi. XII asrdan boshlab Yevropada Sharq fani, adabiyoti va madaniyatiga bo'lgan qiziqish orta boradi va Sharq olimlarining asarlarini arab tilidan lotin tiliga tarjima qilish ishlari yo'lga qo'yila boshlaydi. Umuman sharq madaniyatining Yevropaga kirib kelishi Ispaniya va Sitsiliya orqali Ispaniyaning Toledo shahrida 1130 yili tarjimonlar kollegiyasi tashkil qilinadi va Kremonalik Gerard (1114-1187) «Qonun»ni arab tilidan lotin tiliga tarjima qilishga kirishadi. Biroq bu ishni keyingi XIII asrda yashagan Gerard ismli boshqa tarjimon oxiriga yetkazadi. Shundan boshlab «Qonun» Yevropa tabiblari qo'lidagi asosiy qo'llanmaga va universitetlarda meditsina fani shu asar bo'yicha o'qitila boshlaydi. To 1650 yilgacha medisina fakul'tetlaridagi programmaning yarmini Ibn Sinoning «Qonun»i tashkil etardi. Yirik Yevropa

olimlarining tabobatga oid kitoblari ham Ibn Sino asarlarining ta'sirida edi. Hatto buyuk Leonardo da Vinchi (1519 y. vafot etgan) ham shular jumlasidan bo'lib, uning asarlarida qator arab tibbiy terminlari uchraydi.

Qisqacha qilib aytganda, «Qonun» o'zining asosiy qo'llanma va darslik sifatidagi qiymatini 500 yildan ortiqroq vaqtgacha saqlab qoldi. Bu kitobga bo'lgan talab shunchalik zo'r ediki, XV asrda kitob bosish ixtiro etilgach, birinchi bosilgan kitoblar ichida «Qonun» ham bor edi. Birinchi marta u uyg'onish davridagi gumanizm markazlaridan biri bo'lgan Strasburg shahrida 1473 y. bosilib chiqadi. Umuman «Qonun» lotin tilida 40 martadan ortiq to'la holda nashr etilgan. Ayrim qismlarining nashri esa son-sanoqsizdir.

XIX asrga kelib Evropada «Qonun»ga bo'lgan qiziqish yana boshlanadi va uning ayrim qismlari nemis, fransuz va ingliz tillariga tarjima qilinadi. Ammo keyingi vaqtlargacha bu muhim asar hozirgi zamon tillaridan birontasiga ham to'la holda tarjima qilinmagan edi.

Bu qiyin va mas'uliyatli ishni O'zbekiston sharqshunoslari o'z zimmlariga oldilar, ular «Qonun»ning hamma besh kitobini arabchadan o'zbek va rus tillariga tarjima qildilar va ularni 1954-61 yillar mobaynida Toshkentda shifokorlar bilan hamkorlikda nashr etdilar. «Tib qonunlari» besh kitobdan iborat.

BIRINCHI KITOB tabobatning nazariy asoslari hamda amaliy tabobatning umumiy masalalari haqida ma'lumot beradi. Tabobat ilmining ta'rifi, uning vazifalari, xilt va mizoj haqidagi ta'limot bayon qilinadi. Keyin odam tanasining «oddiy» a'zolari - suyak, tog'ay, asab, arteriya, vena, pay, bog'ich va mushaklar haqida qisqa anatomik ocherk keltiriladi. Kasalliklarning kelib chiqish sabablari, ko'rinishlari, turkumlari hamda ularni davolashning umumiy usullari keltiriladi. Ovqatlanish, hayot tarzi va hayotning hamma bosqichlarida sog'likni saqlash haqidagi ta'limot batafsil bayon qilinadi. Surgi qilish, qayt qildirish va qon olish masalalariga ayrim boblar ajratilgan.

IKKINCHI KITOB o'sha davr tabobatida qo'llanilgan dori-darmonlar haqida zaruriy ma'lumotlar bayon qilingan mukammal majmuadir. Unda o'simlik, hayvon va ma'danlardan olinadigan 800 dan ortiq dori-darmon ta'rifi, ularning davolilik xususiyatlari va qo'llanish usullari bayon qilingan. Muallif Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq hamda O'rta Sharq mamlakatlaridan chiqadigan dori-darmonlardan tashqari Hindiston, Xitoy, Yunoniston, Afrika, O'rta Yer dengizi orollari va boshqa joylardan keltiriladigan ko'plab dorilik moddalarni ham ko'rsatib o'tadi. Ibn Sino tavsiya qilgan ko'pgina dorilar farmakopeyadan mustahkam o'rin olib, hozirgi kunda qo'llanmoqda.

UCHINCHI KITOB inson tanasining boshidan tovonigacha bo'lgan a'zolarida yuz beradigan «xususiy» yoki «mahalliy» kasalliklar haqida ma'lumot beradi. Boshqacha qilib aytganda, bu kitob xususiy patologiya va terapiyaga bag'ishlangan.

Unda bosh va miya (shu jumladan asab kasalliklari va ruhiy kasalliklar ham), ko`z, quloq, burun, og`iz bo`shlig`i, til, tish, milk, lab, tomoq, o`pka, yurak, ko`krak, qizilo`ng`ach va oshqozon kasalliklari, so`ngra jigar, o`t pufagi, qorajigar, ichak, orqa yo`l, buyrak, qovuq, erkak va xotinlarning jinsiy a`zolari kasalliklari haqidagi ma`lumotlar keltiriladi.

Kasallik belgilarini klinik jihatdan o`z davriga nisbatan juda aniq va to`liq ko`rsatib berish, kasalliklarni aniqlashdagi yuksak mahorat, mazkur kitobda atroflicha bayon etilgan ichki kasalliklar sohasidagi ko`plab kashfiyotlar «Tib qonunlari» muallifini hozirgi zamon terapiyasining asoschilaridan biri deb hisoblashga imkon beradi.

TO`RTINCHI KITOB kishi a'zolaridan birontasiga xos bo`lmagan «umumiy» kasalliklarga bag`ishlangan. Bunday kasalliklarga turli isitmalar (kasallik davridagi buhronlar), shishlar (shu jumladan rak), toshmalar, yara-chaqalar, kuyish, suyak sinishi va chiqishi, asablarning jarohatlanishi, bosh suyagi, ko`krak qafasi, umurtqa va qo`l-oyoqlarning shikastlanishi kiritilgan. Shuningdek, mazkur asarda uzoq cho`ziladigan va o`ta yuqumli kasalliklar: chechak, qizamiq, moxov, vabo va quturish haqida so`z boradi; zaharlar va zaharlanish haqidagi ta'limot (toksikologiya) ning asosiy masalalari ham bayon qilinadi. Kitobning maxsus bo`limi inson husni va chiroyini saqlashga va pardoz-andoz vositalariga bag`ishlangan. Jumladan, Ibn Sino sochni to`kilishdan saqlaydigan hamda haddan tashqari semirib ketish yoki ozib ketishning oldini oladigan vositalarni ham tavsiya qiladi.

BESHINCHI KITOB farmakopeya bo`lib, unda murakkab tarkibli dori-darmonlarni tayyorlash va ulardan foydalanish usullari bayon qilingan. Kitobning birinchi qismida turli taryoqlar (ziddi-zaharlar), ma'junlar, habdori, kulcha dori, elaki dori, sharbatlar, qaynatmalar, sharob, marham va hokazolar tavsifi berilsa, ikkinchi qismda muayyan a'zolar - bosh, ko`z, quloq, tish, tomoq, ko`krak qafasi va qorin bo`shlig`i a'zolari, bo`g`inlar va turli teri kasalliklarini davolash uchun ishlatiladigan hamda sinalgan dori-darmonlar keltiriladi. Ibn Sino bayon etgan tib nazariyasi, xususan, «Qonun»ning shu masalaga bag`ishlangan 1-kitobining tahlili meditsina fanlari doktori marhum V. K. Jumaevning quyidagi «Ibn Sinoning umumiy klinik qarashlari» nomli maqolasida mufassal bayon etiladi.

Abu Ali ibn Sinoning ta'limiy-axloqiy qarashlari

Abu Ali ibn Sinoning ta'limiy-axloqiy qarashlari. Abu Ali ibn Sino (980-1037) Sharq va Ovro`pada ma`rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo`shganligi tufayli, «Shayh-Ur-Rais» Sharqda «Olimlar boshlig`i», Ovro`pada «Olimlar podshosi» nomi bilan mashhur bo`lgan allomalardan biri o`rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino ham boshqa zamondosh qomusiy olimlar qatori matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik,

ruhshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, ta'lim – tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoga mashhur yirik asarlar meros qoldirgan olim.

Abu Ali ibn Sino 980 yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida kichik amaldor oilasida tug'iladi. Uning to'la ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sinodir. Abu Ali uning kuniyasidir. Oti Husan, otasining ismi Abdulloh edi. Keyinroq uning oilasi Buxoroga ko'chib o'tgach, u boshlang'ich maktabda o'qiy boshlaydi. Ibn Sinoning mutolasi zo'r, mehnatsevar edi. Undagi tug'ma qobiliyat, o'tkir zehn, kuchli xotira o'zaro birikib ketgan edi. Ibn Sinoning otasi Abdulloh hamda uning do'stlari bilimdon kishilar bo'lib, ularning ilmiy munozaralari o'tadigan oilaviy muhit yosh ibn Sinoga ham ta'sir etadi. Shu bilan birga uning bolalik va o'smirlik yillari o'tgan Buxoro shahri somoniylar davrining yirik madaniy markazi bo'lib hisoblanar edi. Buxoroda ko'plab maktab, madrasa, kasalxona va nodir kitoblar saqlanadigan kutubxona bo'lgan. Jahonning turli mamlakatlaridan kelgan olimlarning ilmiy munozaralarida yosh ibn Sino ham qatnashib, turli fanlarga oid bilimlarini chuqurlashtirib borgan. U ustozlaridan Hind hisobi, fiqhdan bilim olgan. Keyin esa faylasuf Abu Abdulloh Notiliydan falsafa, mantiq, handasa va boshqa fanlardan ta'lim oladi. Shundan so'ng ibn Sino o'zi mustaqil holda barcha fanlar bilan shug'ullana boshlaydi. U ayniqsa tib ilmini chuqur egallab oladi, bu sohada unga ta'lim bergan kishi Buxorolik Abu Mansur Qamariy bo'ldi. Ibn Sino so'ngra falsafani o'rganishga kirishadi. Ayniqsa, Aristotel falsafasini, uning «Metafizika» asari mohiyatini buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning yozgan sharhi tufayli to'liq o'zlashtirib oladi.

IX asr oxiri–X asr boshlariga kelib, o'lkada siyosiy-ijtimoiy vaziyat murakkablashdi. Shu tufayli ibn Sino Xorazmga–Urganchga ko'chib o'tadi. Xorazmda u bir qator olimlar bilan hamkorlikda Abu Rayhon Beruniy boshqarayotgan «Ma'mun akademiyasi»da ilmiy ish bilan shug'ullana boshlaydi. Xorazmda o'zining yirik asarlari – «Tib qonunlari», «Ash-Shifo» kitoblari ustida ish olib boradi.

Mahmud G'aznaviy 1017 yilda Xorazmni o'ziga qaram qilib olgach, nufuzli olimlarni ham o'z saroyiga chaqirib ola boshlaydi. Ibn Sino Mahmud G'aznaviy saroyiga bormay, boshqa yurtlarga ketishga majbur bo'ladi. Gurganjda, Rayda, keyin esa Hamadonda va umrining so'nggi yillari Isfahonda yashaydi. Ibn Sino 1037 yilda vafot etdi.

Ibn Sino haqiqiy qomusiy olim sifatida o'z davridagi fanlarning hammasi bilan muvaffaqiyatli shug'ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd etilgan.

Shundan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi psixologiyaga, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi astronomiyaga, 1 tasi matematika, 1 tasi muzikaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi etikaga, 4 tasi adabiyotga va

8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan ilmiy yozishmalarga bag'ishlangan. Allomadan keyingi avlodlar uning ilmiy asarlari boy meros bo'lib qoldi.

Abu Ali ibn Sinoning «Al-Qonun», «Hayy ibn Yaqzon», «Risolat at-tayr», «Risolat fi-l-ishq» («Ishq haqida risola»), «Risolat fi mohiyat as-salot» («Nomozning mohiyati haqida risola»), «Kitob fi ma'no ziyorat» («Ziyorat qilishning ma'nosi haqida»), «Risolat fi-dafal-g'am min al mivt» («O'limdan keladigan g'amni daf qilish haqida risola»), «risolat al-qadr», «An-Najot», «Ash Shifo», «Donishnoma», «Kitob ash-ishorat» va at tanbihot asarlari shular jumlasidandir.

Ma'lumki, ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etgan. Shuningdek, fanlarni tasnif etadi. Bunda u birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini qo'yadi. Falsafani esa ikki guruhga, ya'ni nazariy va amaliy guruhlarga bo'ladi. Nazariy guruh kishilarni o'zidan tashqaridagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallashga yo'llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilishimiz kerakligini o'rgatadi deydi.

U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi barcha fanlarni kiritadi.

Abu ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Chunki ilm-fan insonga hizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga etkazishi kerak. Bu maqsadga etishish uchun inson qiyinchiliklardan qo'rqmasligi zarur, deydi. «Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir»

Zero, ma'rifatli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi, deydi u fikrini davom ettirib.

Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni etuk bo'lmagan kishilar qatoriga qo'shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi.

U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo'lish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o'z bilimining haqiqiylikini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning ta'lim metodlari haqidagi ta'limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shahsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan g'oya yotadi.

Ibn Sino bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash zarurligini qayd etib, maktabga barcha kishilarning bolalari tortilishi va birga o'qitilishi va tarbiyalanishi lozim deb, bolani uy sharoitida yakka o'qitishga qarshi bo'lgan. Bolani maktabda jamoa bo'lib o'qishini foydasi quyidagicha ifodalangan:

Agar o'quvchi birga o'qisa u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi o'qishning yaxshilanishiga yordam beradi.

O'zaro suhbatda o'quvchilar bir-biriga kitobdan o'qib olganlari, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar.

Bolalar birga to'planganlarida bir-birini hurmat qila boshlaydilar, do'stlashadilar, o'quv materiallarini o'zlashtirishda bir-biriga yordamlashadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni qabul qiladilar.

Bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi: bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik; ta'limda engildan og'irga borish orqali bilim berish; olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi; o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish; bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish; o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib boorish.

Bu talablar hozirgi davr ta'lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Yuqoridagi masalalarga o'zining «Tadbiri manzil» asarida maxsus bo'lim bag'ishlaydi. «Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash» («Omo'zish va parvarish madrasa farzand») bo'limida ta'lim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Yuqoridagi tamoyillar esa bolalarni engil-elpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi.

Talabaga bilim berish o'qituvchining ma'suliyatli burchidir. Shunga ko'ra ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo'l-yo'riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;

berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berishi; ta'limda turli metod va shakllardan foydalanishi;

talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi; fanga qiziqтира olishi;

berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi; bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi; Har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishishi zarur, deydi olim Ibn Sino ta'limotida bilimda qaysi metodlardan foydalanilmasin—u og'zaki ifodami, bilimlarni tushuntirishmi, turli ko'rinishdagi suhbatmi, tajribalarmi, baribir talabada haqiqiy bilim hosil qilish mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tadbqiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo'lgan.

Shu jihatdan olimning «Hay ibn Yaqzon» asari kishilarning did–farosatini o‘stirishi, fikr doirasini kengaytirishi bilan ta’lim–tarbiyada katta ahamiyatga ega. Uning nomi ham shunga ishora qiladi: «Hay ibn Yaqzon». Bu asar farosat ilmi haqida ekanligini ibn Sinonining o‘zi ham ta’kidlaydi.

Mazkur asarni ibn Sino 1023 yilda Hamadonga yaqin bo‘lgan Faradjon qal’asi qamoqxonasida yozgan deyishadi.

Ibn Sino bu asarida ilm–ma’rifatni o‘rganishga kirishishi natijasida ko‘zi ochilgani, uning natijasida Aql (Hay ibn Yaqzon) ko‘ziga ko‘ringani va ilm ham unga o‘z jamolini namoyon qilganini hikoya qilar ekan, ilm–aqlni o‘lim bilmaydigan uyg‘oq, qarimaydigan, yosh, beli bukilmaydigan–barvasta, nuroniy sifatida tasvirlaydi. Tafakkur qilib zarur bo‘lgan va bilishi mumkin bo‘lgan narsalarni o‘qishga kirishgani, bu yo‘lda aqlni ishga solib, o‘zini yomonliklardan chetlashtiradigan turli xususiyatlarini bilib olganligini qayd etadi.

Demak, «Hay ibn Yaqzon» mantiq ilmiga bag‘ishlangani bilan ham aqliy tarbiyada katta ahamiyatga ega. Shuningdek, insondagi yomon illatlarni ham bartaraf etishda ilmu fan, ziyoning ahamiyati, insondagi aql – tafakkur quvvatining yomon illatlardan qutilishi, o‘zligini anglash vositasi ekanligi bilan adabiy–falsafiy asargina bo‘lib qolmay, tarbiyaviy asar sifatida ham qimmatlidir.

Ibn Sino insonning kamolga etishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Tadqiqotchilar uning falsafiy asarlarida axloqqa oid fikr yuritganlari o‘n ikkita deb qayd etadilar

Ibn Sino axloqqa oid asarlarini «Amaliy hikmat» (Donishmandlik amaliyoti) deb ataydi. Olimning fikricha, axloq fani kishilarning o‘ziga va boshqalarga nisabatan hatti –harakati me’yorlari va qoidalarini o‘rganadi.

Ibn Sino axloqlilikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta’riflaydi:

Dunyoda mavjud bo‘lgan jami narsalar tabiatiga ko‘ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilishning o‘zi esa mohiyat e’tibori bilan yaxshilikdir...»

Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini ham tahlil etadi va har biriga ta’rif beradi : masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezoni sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo‘ladi, yomon illatlardan o‘zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, Haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim. Insondagi ijobiy, axloqiy xislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi–muhabbat, mo’‘tadillik, aqlilik, ehtiyotkorlik, qat’iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi.

Qanoat va mo'tadillikni insonning hissiy quvvatiga kiritadi, chidamlilik, aqllilikni g'azab quvvatiga, donolik, ehtiyotkorlikni ziyraklikka, sadoqat, uyatchanlik ijrochilik, achinish, sofdillikni tafovut quvvatiga kiritadi.

Olim qanoatni hissiy fazilatlardan sanaydi va inson o'zini ta'magirlikdan tiysa, mo'tadillikka rioya qilsa, o'zida hirsning namoyon bo'lishini engadi, inson yomon ilatlarni engishda o'z imkoniyatlarini ongli sarf etishi lozim, deydi.

Ibn Sino har bir axloqiy xislatning ta'rifini beradi: mo'tadillik – tan uchun zaruriy oziq va xulq ma'yorlariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik; saxiylilik– yordamga muhtoj kishilarga ko'maklashuvchi insoniy quvvat; g'azab – biror ishni bajarishda jasurlik; chidamlilik – inson o'z boshiga tushgan yomonliklarga bardosh beruvchi quvvat; aqillilik – biror ishni bajarishda shoshma – shosharlikdan saqllovchi quvvat deydi.

Ziyraklikni narsalar va hatto harakatlarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat, achinish, kishilar baxtsizlik, azob– uqibatga duchor bo'lganda, ular bilan xushmuomalada bo'luvchi insoniy quvvat; kamtarlikka xudbin ishlar bilan shug'ullanishdan to'xtatuvchi kuch sifatida ta'rif beradi.

Ibn Sino insonning kamolga etishida to'siqlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni ko'rsatib o'tadi. Johillikni–ilmga, nodonlikni–zehni o'tkirlikka, shafqatsizlik, takabburlikni adolatga, nafratni – sevgi muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta'riflaydi.

Ibn Sino yuksak axloqiy xislatlarga yana kishilarning bir-birlariga do'st bo'lib yashashi, hamkorlik qilishini ham kiritadi. Chunki har bir kishi jamiyatda, odamlar bilan birga yashar ekan, ular bilan do'stona yashashga intiladi.

Modomiki, inson aloqaga muhtoj ekan, boshqa birov bilan qo'shinchilik qilish uchun uning uyi yoniga uy soladi, o'zining ehtiyojini qondirish uchun esa ishlab chiqarish mahsulotlarini almashtiradi, dushmanlardan saqlanish uchun o'zgalar bilan birlashadi. Mana shu tariqa kishilarda birlik hissi, boshqalarga nisbatan sevgi-muhabbat va umumiy axloqiy negizlar ishlab chiqila boshlaydi. U insonda yaxshi xulqning shakllanishida xushxulq, ilimli do'st muhim rol o'ynaydi, deydi. Olim do'stlikni shunday ta'riflaydi:

Har qanday qiyinchiliklarga qaramay o'z do'stini xavf-xatarda yolg'iz qoldirmaydigan do'stlik; manfaatlari o'xshash va g'oyaviy yaqin do'stlik;

o'z shaxsiy manfaati va ehtiyojini qondirishga qaratilgan do'stlik. Ibn Sino birinchi va ikkinchi xil do'stlikni haqiqiy do'stlik deb e'tirof etadi.

Olim haqiqiy do'stlik natijasida sevgi-muhabbat paydo bo'lishi mumkinligini aytadi. U «Risoi al-ishq» asarida sevgi-muhabbatning asl mohiyatini ham ijtimoiy, ham fiziologik jihatdan yoritib beradi. Insonlarga ularning tashqi ko'rinishiga qarab

emas, balki ularning ichki, ma'naviy dunyosiga qarab baho berish kerakligini uqtiradi. Har bir kishi tabiatan sevgi tuyg'usiga ega, u tabiiy zarurat sifatida namoyon bo'ladi, lekin inson o'z tuyg'ularini boshqara olishi, aql va farosat bilan haqiqiy sevgini hirs tuyg'usidan, ehtiros kuchidan ajrata oladi. Chunki haqiqiy sevgi, olimning fikricha, inson zimmasiga axloqiy, huquqiy burch yuklaydi. Bu esa olimning sevgiga ijtimoiy omil sifatida ham qaraganligini ko'rsatadi.

Tadqiqotchilar ibn Sino musiqaga oid ham asarlar yaratganligi, lekin ularning faqat bir qismigina bizgacha etib kelgani haqida ma'lumot beradilar. Shulardan biri «Musika bilimiga oid to'plam» bo'lib, bunda tovushning sezgi a'zolariga ta'siri, uning yoqimli va yoqimsizligi, tovushni eshitganda lazzatlanish yo nafratlanish hissining paydo bo'lishi kabi masalalarga to'xtaydi. Unda musiqaning kishi hayotida qanchalik zarurligi haqida ham fikrlar bayon etiladi. Olimning fikricha, inson tabiatan yoqimli narsalar orqali engil tortsa, uning aksida oromi yo'qolib, nafrati paydo bo'ladi. Ibn Sino musika ovozlarning kishi ruhiga ta'siri haqida ham o'z fikrlarini bayon etadi.

Ibn Sinoning musiqaga oid asarlari u yashagan davr musika ilmidan juda muhim ma'lumotlar berishi bilan ham qimmatlidir.

Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o'rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko'proq yaxshi axloqiy hislatlarni mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi, deb ta'lim berdi.

Inson hissiy va ma'naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat asta-sekin inson fe'l-atvoriga xos xislatga aylana boradi. Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o'rab olgan tashqi muhit, odamlar alohida rol o'ynaydi, ana shu tashqi muhit va odamlar insonning atrof-dunyoni bilishigagina emas, balki uning xulqida yaxshi yoki yomon jihatlarning tarkib topishiga ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo'lish kerakligini, bola yomon odatlarga o'rganmasligi uchun, uni yomon odamlardan, yomon muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi.

Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolotga etadi.

Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta e'tibor beradi. Oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatishi borasida muhim fikrlar bayon etadi. Insonning xulqi va ruhiga mehnatning ijobiy ta'sirini ta'kidlash bilan bir qatorda turli kasb egalari: Hunarmand, dehqonlar mehnatini ulug'laydi va qimorboz, sudxo'r kabilarni qoralaydi. U mehnatsiz hayot kechirish insonga ham jismoniy ham ruhiy tomondan salbiy ta'sir etishini to'g'ri talqin etadi.

Ibn Sino aqliy, axloqiy tarbiya bilan bir qatorda inson kamolotida jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan tahlil etadi.

Ibn Sinogacha insonning kamolga etishida jismoniy tarbiyaning ta'siri haqida bir butun, yaxlit, ta'limot yoritilmagan edi. Ibn Sino birinchi bo'lib jismoniy tarbiyaning ilmiy pedagogik jihatdan bir butun tizimini yaratdi.

Jismoniy mashqlar, to'g'ri ovqatlanish, uyqu, badanni toza tutish tartibiga rioya etish inson sog'lig'ini saqlashda muhim omillardan ekanligini ham ilmiy ham amaliy jihatdan asosladi.

Bolaga ham hali u tug'ilmasdan turib g'amxo'rlik qilish, go'daklik davridan boshlab tarbiyani boshlash zarurligini ta'kidlaydi. Bolaning etuk inson bo'lib shakllanishida unga g'amho'rlik, poklik, mas'uliyatni his etish, do'stona munosabatlar tuyg'usini singdirib borish zarur, deydi olim. Chunki, Ibn Sino merosining asosiy qimmat va qudrati uning keng va kuchli gumanistik mazmunidir.

U o'z ilmi, merosi bilan o'rta asr Sharqining ilmiy madaniy qudratini butun dunyoga namoyon qildi. Butun insoniyat madaniyatining rivojiga ulkan hissa qo'shdi.

Shuning uchun ham Ibn Sino jahon madaniyatining buyuk siymosi, insoniyat uchun hurmat qilgan olim, buyuk tabib, eng katta faylasuf, tabiatshunos, insonshunos, mashhur entsiklopedist sifatida tan olindi.

Ibn Sinoning jahon fani va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasini e'tiborga olib, Jordano Bruno Ibn Sinoni qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi Aristotel, (vrach) tabib Golenlar bilan teng qatorga qo'ysa, A.Dante o'zining «Ilohiy komediya»sida olimni Ptolomey, Evklid, Gippokratlarga tenglashtiradi. Nemis faylasufi L.Feyirbah olimni «mashhur tabib va faylasuf»dir desa, Hindostonning buyuk davlat arbobi J.Neru o'zining «Hindistonning ochilishi»degan asarida O'rta Osiyo olimlarining tilga olar ekan, Ibn Sino nomini alohida ta'kidlab: «Ulardan eng mashhuri (vrachlar) tabiblar podshohi» degan nomni olgan Buxorolik Ibn Sino (Avitsenna) dir.

Demak, ibn Sinoning shaxsiy faoliyati dunyoviy ilmlarni o'rganish haqidagi ta'limotlari, ta'lim-tarbiya haqidagi mulohazalari, umuminsoniy pedagogik fikr taraqqiyotida o'ziga xos o'rinni egallaydi.

ILMIY FAOLIYATI

Abu Ali ibn Sinoning tirishqoqligi va matonatli bo'lgani haqida o'zi bunday yozadi: "Mantiq, tabiat va matematika bilimlarini puxta o'rganib oldim. Keyin ilohiyotni o'rganishga o'tib, "Metafizika" kitobini o'qidim. Lekin unda nimalar deyilganini tushuna olmadim, kitob yozgan kishining maqsadi menga qorong'u edi.

Hatto uni qirq bir marta o'qidim, kitob yod bo'lib ketdi. Shunda ham kitob va uning maqsadini to'la tushunib yeta olmadim. Nihoyat, umidimni uzib, "Bu tushunib bo'lmaydigan bir kitob ekan", degan xulosaga keldim. Ammo kunlardan bir kun asr vaqti kitobfurushlarning oldiga borib qoldim. Bir kitobfurush muqovalangan kitobni qo'lida tutganicha uni maqtardi. U meni ham chaqirib, kitobni ko'rsatdi... Lekin men kitobni sotib olishni rad qildim. Kitobfurush menga: "Bu kitobni ol, narxi arzon, uch dirhamga sotaman, egasi pulga muhtoj", dedi. Kitobni noiloj sotib oldim. Qarasam, u Abu Nasr Forobiyning "Metafizika" kitobi haqida yozgan sharhi ekan. Uyga qaytib, darrov uni o'qishga kirishdim. Asar yod bo'lib qolgani sababli tezda bu kitobning maqsadini tushunib oldim. Bu ishdan o'zimda yo'q xursand edim. Allomaning ilmiy ijodi o'n sakkiz yoshdan boshlangan. Dastlab bu ishni o'ziga yaqin bo'lgan kishilarning iltimosi bilan bajargan. Yosh bo'lishiga qaramay, Nuh ibn Mansurga atab "Hadyat ur rais" ("Rais Ibn Sino hadyasi") asari, "Urjuza fit tib" ("Tibbiyot haqida doston") she'riy asari hamda o'z qo'shnisi va do'sti Abuhusayn Aruziyning iltimosiga binoan ko'p fanlarni o'z ichiga olgan "Hikmatul Aruziy" ("Aruziy hikmati") asarini tasnif etgan. Ibn Sino Buxoroda yigirma jildli qomusiy asari "Alhosil val mahsul" ("Yakun va natija"), ikki jildli "Kitobul birr val ism" ("Yaxshilik va yomonlik kitobi") asarini va o'zining tabobatga oid birinchi risolasi "Tabobat lug'ati"ni yozgan. Bu risoladan ko'p tabiblar foydalanganlar.

ABU ALI IBN SINO O'GITLARIDAN

Ilm narsalarning inson aqli yordamida o'rganilishidir.

- * Donishmandlik hayot so'qmoqlarida ulug' saodatni hozirlab, in'om etuvchi vositadir.
- * Xulqning muvozanati a'zolar salomatligini ta'minlaydi.
- * Mol dunyoing seni aldamasin! Chunki asragan mol dunyoing boshqalarniki bo'ladi. Uni yaxshilikka sarf eta olsanggina seniki bo'ladi.
- * Kishi uchun eng foydali, dilni yorituvchi narsa qanoatdir. Eng zararli va nafrat keltiruvchi narsa esa hirs va g'azabdir.
- * Yordam berishning go'zalligi kishilarning undan tasalli topishida ko'rinadi.
- * Bir kishi sen bilan munosabatida xato qilib, so'ng uzrini bayon etsa, uning uzrini kechiktirmay qabul et!
- * Agar havoda chang va tutun bo'lmaganida edi, odamlar ming yil ham yashagan bo'lardi.
- * Hayo insonning abadiy go'zalligi va latofatidir. Hayosiz yuz jonsiz jasadga o'xshaydi.
- * O'z vaqtida, me'yori bilan badantarbiya qilgan odamga dard yaqin yo'lamaydi.

* Badantarbiya bilan mashgʻul boʻlinsa, hech qanday doridarmonga zarurat qolmaydi, buning uchun muayyan bir tartibga rioya qilmoq lozim.

Abu Ali Ibn Sino asarlari:

Tibbiyot sohasidagi asarlari

1. **"Al-Qonun fi't-tibb" (Tib qonunlari)**
 - Bu asar 5 jildidan iborat boʻlib, oʻrta asr tibbiyotining eng muhim manbasi hisoblanadi.
 - Unda inson anatomiyasi, kasalliklarning sabablari, belgilari, davolash usullari, dori-darmonlar haqida batafsil maʼlumot berilgan.
 - Asar 17-asrgacha Yevropa universitetlarida asosiy tibbiyot darsligi sifatida oʻqitilgan.
2. **"Kitob al-Urjuza fi't-tibb" (Tibbiyot haqida sheʼriy risola)**
 - 1326 baytdan iborat sheʼriy shakldagi tibbiy qoʻllanma.
 - Unda tibbiyotning asosiy tamoyillari qisqacha va yodlash uchun qulay tarzda bayon qilingan.
3. **"Kitob al-Adviya al-Qalbiyya" (Yurak dorilari haqida kitob)**
 - Yurak kasalliklari va ularni davolash vositalari haqida maʼlumot beradi.

Falsafa va mantiq sohasidagi asarlari

1. **"Kitob ash-Shifo" (Shifo kitobi)**
 - Eng yirik falsafiy asari, 18 qismdan iborat.
 - Mantiq, tabiiyot, matematika va metafizika boʻlimlarini oʻz ichiga oladi.
 - Bu asar Aristotel falsafasini islomiy tafakkur bilan uygʻunlashtirgan.
2. **"Kitob an-Najot" (Najot kitobi / Qutulish kitobi)**
 - "Shifo kitobi"ning qisqartirilgan shakli boʻlib, unda asosiy falsafiy gʻoyalar ixcham tarzda bayon etilgan.
3. **"Danishnoma-i Aloʻiy" (Aloʻiy bilimlar kitobi)**
 - Fors tilida yozilgan falsafiy asar, Xuroson hukmdori Aloʻ ad-Davla nomiga bagʻishlangan.
4. **"Risola fi'n-nafs" (Nafs haqida risola)**
 - Ruh, idrok, ong va inson tabiatining falsafiy tahlili.

Tabiiyot va boshqa fanlarga oid asarlar

- **"Kitob al-Ishorat va't-Tanbihat"** – falsafa, mantiq va sufiylikka oid chuqur mazmundagi asar.
- **"Kitob al-Hudud"** – falsafiy va mantiqiy tushunchalarning izohi.
- **"Kitob al-Burhan"** – mantiq ilmi haqida.
- **"Risola fi asror al-hikma"** – tabiat sirlariga bagʻishlangan.

Musiqqa va adabiyot

- Ibn Sino musiqashunoslikka ham eʼtibor bergan. U **"Kitob ash-Shifo"** asarining bir qismida musiqaning ilmiy asoslari, tovushlar, ritmlar va ohanglarning ruhga taʼsiri haqida yozgan.
- Shuningdek, adabiy, axloqiy risolalar va sheʼrlar ham yozgan.

Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) – jahon ilm-fani tarixidagi buyuk shaxs boʻlgani uchun, uning xotirasiga **Oʻzbekiston, Tojikiston, Eron, Rossiya va boshqa mamlakatlarda** haykallar

oʻrnatilgan. Quyida **Ibn Sino haykallari joylashgan mashhur shaharlar** roʻyxati va ular haqida qisqacha maʼlumot beraman:

Turli davlatlarda Abu Ali Ibn Sinoga qoʻyilgan yodgorliklar

OʻZBEKISTONDA

1. **Buxoro shahri**
 - Ibn Sinoning tugʻilgan joyiga yaqin hududda (Afshona qishlogʻi) **Ibn Sino majmuasi** barpo etilgan.
 - Bu yerda **Ibn Sino haykali, muzeyi va ilmiy markaz** mavjud.
 - Haykal bronzadan ishlangan, olimning falsafiy mulohazaga choʻngan holati tasvirlangan.
2. **Toshkent shahri**
 - Poytaxtdagi **Tibbiyot akademiyasi** oldida Ibn Sinoning haykali oʻrnatilgan.
 - Shuningdek, shahar markazidagi **Ibn Sino nomidagi koʻcha** ham bor.
3. **Urganch shahri (Xorazm viloyati)**
 - Ibn Sino haykali tibbiyot institutining kirish qismida joylashgan.
4. **Samarqand shahri**
 - Shahar markazida, ilmiy va tarixiy obidalar yaqinida Ibn Sinoning yodgorlik haykali mavjud.

TOJIKISTONDA

- **Dushanbe shahri**
 - Ibn Sino haykali shahar markazida, **Tojikiston Milliy tibbiyot universiteti** yaqinida oʻrnatilgan.
 - U Tojikiston xalqining faxri sifatida eʼzozlanadi.

ERONDA

- **Hamadon shahri**
 - Ibn Sino uzoq yillar shu shaharda yashagan va shu yerda vafot etgan.
 - Hamadon shahrida **Ibn Sino maqbarasi va yodgorlik haykali** mavjud.
 - Bu majmua Eronning eng mashhur ilmiy-tarixiy yodgorliklaridan biridir.

ROSSIYADA

- **Moskva shahri**
 - **Rossiya Tibbiyot akademiyasi** hududida Ibn Sinoning haykali oʻrnatilgan.
 - Bu haykal rus tibbiyot tarixida uning oʻrni va ilmiy merosiga ehtirom sifatida bunyod etilgan.

BOSHQA MAMLAKATLARDA

- **Parij (Fransiya)** – Sorbonna universiteti yaqinida Ibn Sinoning nomi bitilgan yodgorlik lavhasi mavjud.
- **Boku (Ozarbayjon)** – Ibn Sino haykali va koʻchasi mavjud.
- **Kobul (Afgʻoniston)** – Ibn Sino nomidagi kasalxona oldida uning haykali oʻrnatilgan.

Abu Ali ibn Sino haqidagi asarlar bibliografiyasi

O'zbek va tojik tilidagi asarlar

1. Ayniy, Sadriddin. *Abu Ali ibn Sino: Tarixiy roman*. — Dushanbe: Irfon nashriyoti, 1956. — 420 b.
2. Azimjonov, S. *Abu Ali ibn Sino — buyuk alloma*. — Toshkent: Fan, 1980. — 250 b.
3. Fitrat, Abdurauf. *Ibn Sino haqida*. — Toshkent: Ma'rifat, 1923. — 32 b.
4. Hakimov, A. *Ibn Sino va Sharq tibbiyoti tarixi*. — Toshkent: Fan, 1972. — 185 b.
5. Mirzaev, A. *Ibn Sino falsafasining asosiy g'oyalari*. — Toshkent: O'zbekiston, 1985. — 210 b.
6. Qodirov, Sh. *Ibn Sino hayoti va ilmiy merosi*. — Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 2000. — 156 b.
7. Karimov, H. *Ibn Sino ta'limoti va zamonaviy fan*. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. — 192 b.
8. To'xtiyev, A. *Ibn Sino hikmatlari*. — Toshkent: Cho'lpon, 1999. — 80 b.

Rus tilidagi asarlar

9. Бертельс, Е. Э. *Абу Али Ибн Сина и его эпоха*. — Москва: Издательство восточной литературы, 1952. — 328 с.
10. Туганов, Г. Г. *Авиценна: жизнь и философия*. — Душанбе: Дониш, 1970. — 280 с.
11. Месяц, А. И. *Авиценна — великий врач Средневековья*. — Москва: Наука, 1982. — 190 с.
12. Филиппов, И. М. *Авиценна как учёный и мыслитель*. — Ленинград: Медгиз, 1964. — 210 с.
13. Аширов, М. *Философия Ибн Сины и её влияние на восточную мысль*. — Ташкент: Фан, 1986. — 230 с.
14. Ниязов, Р. *Традиции Ибн Сины в восточной медицине*. — Душанбе: Ирфон, 1980. — 145 с.

Ingliz tilidagi asarlar

15. Corbin, Henry. *Avicenna and the Visionary Recital*. — Princeton: Princeton University Press, 1960. — 246 p.
16. Wickens, G. M. *Avicenna: Scientist and Philosopher*. — London: Luzac & Company, 1952. — 320 p.
17. Goodman, Lenn E. *Avicenna*. — London: Routledge, 1992. — 400 p.
18. Gutas, Dimitri. *Avicenna and the Aristotelian Tradition*. — Leiden: Brill, 1988. — 450 p.
19. Draper, John William. *History of the Intellectual Development of Europe*. — New York: Harper & Brothers, 1876. — 372 p.
20. Nasr, Seyyed Hossein. *Science and Civilization in Islam*. — Cambridge: Harvard University Press, 1968. — 298 p.

Qo'shimcha manbalar (maqolalar, risolalar)

21. Muminov, I. *Ibn Sino tafakkuri va inson haqidagi qarashlari*. — “Sharq yulduzi” jurnali, №4, 1975. — B. 45–56.
22. Xolmirzayev, O. *Ibn Sino merosining falsafiy tahlili*. — “O'zbekiston falsafasi masalalari” to'plami, 1982. — B. 122–136.

23. Rahmonov, A. *Avitsenna va uning Yevropa ilm-faniga ta'siri*. — “Fan va turmush”, 1998, №9. — B. 14–18.

Abu Ali ibn Sino haqidagi o'zbek tilidagi manbalar

1. Ayniy, S. **Abu Ali ibn Sino: tarixiy roman**. — Dushanbe: Irfon, 1956. — 420 b.
2. Azimjonov, S. **Abu Ali ibn Sino – buyuk alloma**. — Toshkent: Fan, 1980. — 250 b.
3. Fitrat, A. **Ibn Sino haqida**. — Toshkent: Ma'rifat, 1923. — 32 b.
4. Hakimov, A. **Ibn Sino va Sharq tibbiyoti tarixi**. — Toshkent: Fan, 1972. — 185 b.
5. Mirzaev, A. **Ibn Sino falsafasining asosiy g'oyalari**. — Toshkent: O'zbekiston, 1985. — 210 b.
6. Qodirov, Sh. **Ibn Sino hayoti va ilmiy merosi**. — Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 2000. — 156 b.
7. Karimov, H. **Ibn Sino ta'limoti va zamonaviy fan**. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. — 192 b.
8. To'xtiyev, A. **Ibn Sino hikmatlari**. — Toshkent: Cho'lpon, 1999. — 80 b.
9. Muminov, I. **Ibn Sino tafakkuri va inson haqidagi qarashlari // Sharq yulduzi**. — 1975. — №4. — B. 45–56.
10. Xolmirzayev, O. **Ibn Sino merosining falsafiy tahlili // O'zbekiston falsafasi masalalari**. — Toshkent: Fan, 1982. — B. 122–136.
11. Rahmonov, A. **Avitsenna va uning Yevropa ilm-faniga ta'siri // Fan va turmush**. — 1998. — №9. — B. 14–18.

Xulosa

Abu Ali ibn Sino sarmahsul ijodi, boy ilmiy merosi bilan jahon ilm fani va madaniyati taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan allomadir. U o'z ilmiy ijodiy faoliyati davomida nafaqat Markaziy Osiyo, balki Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida ham yuqori mavqega erishdi. Hatto G'arb ilm fani va madaniyati taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Alloma o'z davrida “Olimlar peshvosi” va “Tabiblar podshohi” kabi bir qancha unvonlarga sazovor bo'lgan. Ibn Sino asarlari G'arb mamlakatlarida XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilingan. Birgina “Tib qonunlari” asari lotinchada qirq marta to'liq holda nashr etilgan. Sharq va G'arbda Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asaridan 700 yil mobaynida tibbiyot sohasida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan. “Kitob ush shifo”ning ko'p bo'limlari, mantiq, musiqa, yerning tuzilishi, geologik jarayonlar, metafizikaga doir qismlari ham lotin tilida bosmadan chiqqan. Allomaning ilmiy ijodi, chuqur falsafiy mazmunni ifodalovchi ruboiylari Sharq adabiyotida qissalar janrining rivojlanishiga turtki bergan. Jahon olimlari tomonidan Abu Ali ibn Sino asarlari, uning faoliyati bo'yicha hozirgacha muntazam ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Dunyo bo'ylab deyarli barcha tillarda alloma haqida asarlar bitilgan.

Mundarija:

Kirish qismi----- 3

Ibn Sinoning hayoti va ijodi----- 3-15

Abu Ali ibn Sinoning ta'limiy-axloqiy qarashlari-----	15-22
Ilmiy faoliyati -----	22-23
Abu Ali Ibn Sino o`gitlaridan-----	23-24
Abu Ali Ibn Sino asarlari-----	24
Turli davlatlarda Abu Ali Ibn Sinoga qo`yilgan yodgorliklar-----	25
Abu Ali ibn Sino haqidagi asarlar bibliografiyasi-----	26
Xulosa-----	27